

**VOYAGA YETMAGANLAR O'RTASIDA HUQUQBUZARLIKLAR
PROFILAKTİKASINING MUHIM AHAMIYATI.**

Mirzayev Fazliddin Ilyosjon o'g'li

*Ishki ishlar vazirligi Akademiyasi kunduzgi ta'lim 3-bosqich 308-guruh
kursanti*

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolani tahlil qilish jarayonida yosh avlodning ulg'ayib kamol topishidagi ijtimoiy-axloqiy munosabatlarining uyg'unligiga alohida e'tibor berildi. Tadqiqot jarayonida voyaga yetmagan bolalar bilan ishlashda vujudga kelayotgan muamolar va ular tomonidan sodir etilayotgan jinoyatlar sonini oshib borishiga sabab bo'layotgan sabab va sharoitlar to'g'risidagi mulohazalar keltirildi.

Kalit so'zlar: *yangicha tizim, voyaga yetmaganlar, yoshlar, jamiyat, ma'rifat, demokratiya, g'arb madaniyati, internet, oila, BMT,*

АННОТАЦИЯ

В ходе анализа данной статьи особое внимание было уделено гармонии социально-нравственных отношений молодого поколения во взрослом возрасте. В ходе исследования были высказаны соображения о проблемах, возникающих при работе с несовершеннолетними детьми, а также о причинах и условиях, способствующих увеличению числа совершаемых ими преступлений.

Ключевые слова: *новая система, несовершеннолетние, молодежь, общество, просвещение, демократия, западная культура, интернет, семья, ООН,*

Annotation

During the analysis of this article, special attention was paid to the harmony of social and moral relations of the younger generation in adulthood. In the course of the study, thoughts were expressed about the problems that arise when working with underage children, as well as about the causes and conditions that contribute to an increase in the number of crimes committed by them.

Keywords: *new system, minors, youth, society, education, democracy, western culture, internet, family, UN,*

KIRISH

Demokratik prinsplarga asosan fuqarolik jamiyati barpo etishni o'z oldiga oliy maqsad qilib qo'ygan har bir davlat eng avvalo ushbu jarayonning uzoq taraqqiyot yo'lini bosib o'tishini anglagan holda asosiy e'tiborni barkamol yosh avlodni tarbiyalashga qaratadi.

Respublikamizda voyaga yetmaganlar jinoyatchiligining oldini olish va profilaktik choralarni amalga oshirish hamda voyaga yetmaganlarni huquqlarini himoya qilishga oid qator maqsadli chora-tadbirlar ya'ni, voyaga yetmaganlar va yoshlar o'rtasida huquqbuzarliklarning barvaqt oldini olish, voyaga yetmaganlarning huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini oshirish, ularga nisbatan tayinlanadigan jinoiy jazolarni yanada liberallashtirish, ularning huquqlarini himoya qilishga oid keng ko'lamli tizimli ishlar amalga oshirilmoqda. Bugungi kunda mamlakatimizda 18 yoshgacha bo'lgan yoshlar 6 mln 247 ming 146 nafarni 30 yoshgacha bo'lganlar esa 3 mln 163 ming 221 nafarni tashkil etadi, keltirilgan ushbu raqamlarga asoslanib aytish mumkinki xalq xo'jaligining turli jabxalarida faoliyat ko'rsatib kelayotgan yoshlarimiz jamiyat va davlat rivojiga ta'sir etuvchi va hal qiluvchi asosiy omildir.

Bilamizki, voyaga yetmaganlarning jinoyat sodir etishi, turli salbiy ta'sirlarga berilishi har qanday jamiyatda, xatto rivojlangan davlatlarda ham eng katta muammodir. Chunki, hali o'zini to'la boshqara olmaydigan, sodir etgan xatti-harakatining mohiyatini to'liq tushunib yetmaydigan bola atrof-muhit, ijtimoiy voqealik ta'sirida huquqbuzarlik yoki jinoyatchilik ko'chasiga kirishi mumkin. Voyaga yetmaganlar yomon tarbiyalansa yoki ularga turli salbiy ijtimoiy illatlar o'z ta'sirini o'tkazsa, ushbu kamchiliklar ularning kelgusi hayotiga ham ta'sir etadi. Kriminologik faoliyat shuncha uzoq davom etishi va xavfliroq tus olishi isbotlangan. Voyaga yetmaganlar huquqbuzarliklarining kelib chiqishiga ko'maklashuvchi asosiy omil urbanizatsiyasiya yoki boshqa demografik jarayon emas, balki avvalo oila, maktab, mehnat, jamoasi va oila turmushidagi tarbiyaning kamchiliklaridir.

Voyaga yetmaganlar jinoyatchiligini oldini olishda qadriyatlarining o'rni va roli juda katta. Biroq jahon Internet axborot tarmog'i imkoniyatlari kengayib, dunyoda global axborot almashinuvining tezlashishi, yot g'oyalarning voyaga yetmaganlar ongi va dunyoqarashiga ta'siri tobora kuchayib borayotganligi mavjud qadriyatlarining ta'sirchanligini susaytirmoqda.

Ushbu yo'nalishda quyidagi ishlarning amalga oshirilishini maqsadga muvofiq deb xisoblaymiz:

Birinchidan, Ta'lim muassasalari zimmasiga o'quvchilarning intellektual, jismoniy va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga mo'ljallangan turli to'garaklar, qiziqishlari bo'yicha sport tadbirlarini tashkil etish vazifasini yuklash va buning nazoratini amalga oshirish. Bunday say harakatlar orqali yoshlarimizning Vatan kelajagi uchun o'ziga ma'suliyatni oladigan, Vatan sha'nini himoya qiladigan, mustahkam dunyo qarash va qat'iy fuqarolik pozitsiyasiga ega o'quvchi-yoshlarni tayyorlash.

Ikkinchidan, bu borada ommaviy axborot vositalari, xususan, internet, radio va televideniyalarning rolini va ma'suliyatini yanada kuchaytirish. Bu orqali voyaga yetmaganlarni g'arb madaniyatining qurboni bo'lish ehtimolini kamaytirishimiz

mumkin ya'ni oilada ota-onaga bo'lgan hurmat ehtiromni oilada ushbu ikki shaxsning rolini oshirish, ichkilik, giyohvandlik, psixotrop moddalarga qiziqish xatoki o'rganib qolishning oldini olish.

Uchinchidan, voyaga yetmaganlarda ma'naviy-axloqiy fazilatlarni shakllantirish va rivojlantirishga

Shuningdek ota-onalarning farzand tarbiyasiga e'tiborsizligi, o'z farzandlarining tarbiyasini birovlariga ishonishlari ham salbiy holatlar kelib chiqishiga sabab bo'lmoqda. Bugungi kunda ayrim ota-onalar katta orzu-havaslar bilan, ya'ni farzandini yaxshiroq moddiy ta'minlash, to'yini boshqalarnikidan ko'ra dabdali o'tkazish, sarpolarni bekamu-ko'st qilish niyatida bolasini qari ota-onasiga, qarindoshi yoki tanish-bilish, qo'niqo'shnisiga tashlab, o'zlari boshqa yurtga ishlab, pul topib kelish uchun ketayotganligi kuzatilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2017 yil 19 sentabr kuni Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 72 sessiyasida so'zlagan nutqida sayyoramizning ertangi kuni, farovonligi farzandlarimiz qanday inson bo'lib kamolga yetishi bilan bog'liq bizning asosiy vazifamiz yoshlarimizning o'z salohiyatini namoyon qilishi uchun zarur sharoitlar yaratishdan iborat. Shu munosabat bilan odamlar, birinchi navbatda yoshlarning ongi tafakurini ma'rifat asosida shakllantirish tarbiyalash eng muhim vazifadir.

Bizning asosiy vazifamiz yoshlarning o'z salohiyatini namoyon qilishi uchun zarur sharoitlar yaratish, zo'ravonlik "g'oyasi virusi" tarqalishining oldini olishdir. Buning uchun yosh avlodni ijtimoiy-qirollab quvatlash, uning huquq va manfaatlarini himoya qilish borasidagi ko'p tomonlama hamkorlikni rivojlantirish lozim deb hisoblaymiz" – ,degan so'zlari ham voyaga yetmaganlar jinoyatchilgini o'rganish uni taxlil etish va barvaqt profilaktikasini amalga oshirish zaruratini mavjudligidan dalolat beradi.

Voyaga yetmagan yoshlarni turli xil salbiy illatlardan himoya qilish hamda ijtimoiy huquqiy muhofaza qilish hamda ijtimoiy huquqiy muhofaza qilish uchun O'zbekiston Respublikasining 2008 yil 7 yanvar kuni "Bola huquqlarining kafolatlari to'g'risidagi" qonuni 2010yil 28 sentabr kuni "Voyaga yetmaganlar o'rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklar profilaktikasi to'g'risidagi" qonuniga asosan voyaga yetmagan o'rtasida nazoratsizligi va huquqbuzarligini barvaqt oldini olishga qaratilgan normativ hujjatlar so'zimiz isbotidir.

REFERENCES

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – T: O'zbekiston, 2023.
2. Мирзиёев М.М.–“Халқимизнинг розилиги бизнинг фаолиятимизга берилган энг олий баҳодир. - Т: «Ўзбекистон» НМИУ, 2018. 143-144 б.
3. Ўзбекистон Республикасининг 2010 йил 2 июндаги “Суд экспертизаси тўғрисида”ги Қонуни. // <https://lex.uz/docs/1633102>

4. Ўзбекистон Республикасининг Жиноят-процессуал кодекси.
<https://lex.uz/docs/111460> .
5. Суд-экспертлик фаолиятини янада такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида. ПК-4125-сон қарори. <https://lex.uz/docs/4172023>
6. *Маматкулов Т. Б., Закурлаев ва бошқ А. К.* Ўзбекистон Республикасининг «Суд экспертизаси тўғрисида»ги қонунига шарҳ. – Т.: Ўзбекистон Республикаси ИИВ Академияси, 2017. – 176 б
7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidebti huzuridagi statistika agentligi saytidagi voyaga yetmaganlarga oid statistika. <https://stat.uz/uz/rasmiy-statistika/demography-2>
8. *Umirzakov.B.A.* **Voyaga yetmaganlar jinoyatchiligining kriminologik tavsifi va profilaktikasi.** Monografiya. – Т.: O‘zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2021. – 152 b.